



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING  
QARORI**

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2022 - yil «5» - dekabr

655-8-0-Q/22

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Viloyat hududidagi shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo yo'lovchilar transportida  
yo'lovchi va bagaj tashish tariflarini belgilash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi “Avtomobil transporti to'g'risida”gi 674-Isenli Qonunining 15-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-sentabrdagi “Umumiy foydalaniladigan transportda yo'lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi 273-sonli va 2021-yil 8-oktabrdagi “Hududlarda jamoat transporti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 630-sonli, qarorlari ijrosi yuzasidan hududlarda (shahar va tumanlarda) yo'lovchilar transportida yo'lovchi va bagaj tashishning yo'l qo'yiladigan tariflar darajasi iqtisodiy asoslangan tashish xarajatlaridan va yo'lovchilar tashish xizmatlariga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

**QAROR QILAMAN:**

1. Surxondaryo viloyati shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo yo'lovchilar transportida yo'lovchilar va bagaj tashish xizmatlarining cheklangan tarifi quyidagicha belgilansin:

- a) avtobuslarda bir yo'lovchi km uchun 170 (bir yuz yetmish) so'm;
- b) yo'nalishli taxi (mikroavtobus)larda bir yo'lovchi km uchun 220 (ikki yuz yigirma) so'm.

2. O'zbekiston Respublikasining “Avtomobil transporti to'g'risida”gi Qonuniga asosan yo'lovchi:

shahar va shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo yo'nalishlaridagi avtobuslarda yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni o'zi bilan bepul olib yurish;

shahar va shahar atrofi yo'nalishlarida yigirma kilogrammdan oshmaydigan og'irlikdagи bagajning bir o'rnini o'zi bilan bepul olib yurish va boshqa huquqlarga ega ekanligi inobatga

olinsin.

3. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (J.Normo'minov), viloyat Transport boshqarmasi (X.Voxidov) tuman hokimlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-oktabrdagi "Hududlarda jamoat transporti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 630-sonli qaroriga asosan, tashuvchilar tomonidan shahar atrofi yoki viloyat ichidagi shaharlararo avtobus yo'nalishida ko'rildigan zarar miqdori 30 foizgacha (30 foiz ham shu jumlaga kiradi) bo'lgan yo'nalish norentabel avtobus yo'nalishi bo'lib hisobga olinishini inobatga olgan holda, mazkur norentabel avtobus yo'nalishlaridan ko'rildigan zararlarni Respublika budgeti va viloyatlar mahalliy budgetlari parametrlarida nazarda tutgan holda har oy yakuni bo'yicha belgilangan tartibda subsidiya ajratish yo'li bilan qoplab bersin.

4. Mazkur qaror "Surxon tongi" va "Zarya Surxana" gazetalarida rasman e'lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinosi A.Xidirov zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyati hokimi**



**Bobolov T.A.**